

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

JUMANAZAROV OSERBAY SEYTMURATOVICH

**XIZMATLAR SOHASIDA SHERIKCHILIK ALOQALARI VA
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)**

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Table of contents of the abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation in
Economic Sciences**

Jumanazarov Oserbay Seytmuratovich

Xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalari va mexanizmini takomillashtirish yo'llari
(Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)3

Жуманазаров Осербай Сейтмуратович

Пути совершенствования партнерских отношений и механизмов в сфере услуг (на
примере Республики Каракалпакстан)31

Jumanazarov Oserbay Seytmuratovich

Ways to improve partnerships and mechanisms in the service sector (in the example of the
Republic of Karakalpakstan).....61

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....65

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

JUMANAZAROV OSERBAY SEYTMURATOVICH

**XIZMATLAR SOHASIDA SHERIKCHILIK ALOQALARI VA
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)**

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt2902 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Salayev San'atbek Kamilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Arabov Nurali Uralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Nosir Maxmudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.1.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil « 5 » aprel soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-47, faks.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (164 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-47, faks.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 18 » mart kuni tarqatildi.

(2024-yil « 18 » mart) dagi 44 raqamli reestr bayonnomasi).



J.K. Sauxanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

R.B. Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent

T. Doschanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida globallashuv hamda raqobat jarayonlarining kuchayishi yetakchi va rivojlanayotgan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasining jadal sur'atlarda o'sishini taqozo etmoqda. The Global Economy ma'lumotlariga ko'ra, "2021-yil dunyo YaIM hajmida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi o'rtacha 55,43 foizni, eng yuqori ko'rsatkich Makaoda – 94,2, Gonkongda – 89,69, AQShda – 77,6, Frantsiya, Kipr, Isroil, Shveysariyada o'rtacha 72,0 foizni, Gollandiya, Gretsiya, Ispaniya, Italiyada qariyb 70 foizni, MDH davlatlari ichida Rossiya va Armanistonda 53,0, Qozog'istonda 54,0 Belarusda 48,0 foizni tashkil etdi"¹. Xizmatlar sohasining rivojlanishi o'ziga xos murakkab va tizimli jarayon sifatida qulay ijtimoiy-iqtisodiy muhit, maqbul tarmoq siyosati, innovatsion yondashuvlar va davlat qo'llab-quvvatlashi mexanizmlarining o'zaro muvofiqlashtirilgan ta'sirini taqozo etadi.

Jahonda global raqobat muhiti talablariga muvofiq keluvchi xizmatlar sohasini rivojlantirish, uning samarali amal qilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xizmat ko'rsatishning innovatsion va zamonaviy shakllarini yo'lga qo'yish, uning multiplikativ samarasi va sherikchilik shakllaridan optimal foydalanish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, aholi turmush farovonligi va yangi ish o'rinlarini yaratishdagi rolini oshirish, sohaga raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini tatbiq etish, mintaqalarda o'ziga xos geosiyosiy xususiyatlarni inobatga olgan holda xizmat ko'rsatish sohalarida sheriklikning samarasi yuqori bo'lgan maqbul tashkiliy-huquqiy shakllarini joriy etish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi rolini oshirish, joylarda servis xizmatlarini diversifikatsiya qilish va sifatini oshirish, sohani yanada qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "...hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 martaga oshirish orqali 3,5 mln. yangi ish o'rinlarini yaratish"² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish, o'z navbatida, xizmatlar sohasi jozibadorligini kuchaytirish, servis sohasida biznes subyektlariga qo'shimcha imtiyozlar berish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, Qoraqalpog'iston Respublikasida ekoturizmni rivojlantirish maqsadida Mo'ynoqning yangi aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalanish, joylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish subyektlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik, faktoring, lizing, konsalting, franchayzing kabi shakllari va MICE, eko, turizm kabi yuqori sifatli raqobatbardosh xizmat turlarini, yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini joriy etish muammolarini hal etishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligini namoyon etadi.

¹ https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/share_of_services

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni \ lex.uz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 31-avgustdagi PF-213-son “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur‘atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 27-yanvardagi PQ-104-son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlardagi vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida sheriklik shakllari va mexanizmlarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy muammolari xorijiy olimlardan P.Druker, F.Kotler, F.Xayek, Y.Shumpeter, A.Bordman, F.Vining, G.Xodj, S.Greve, T.Bovayrd kabi olimlarning ishlarida keng yoritilgan³.

Mazkur muammo yechimiga MDH olimlaridan Avanesova G., Aykazyan A., Aleynikov A., Aniskin Y., Burmenko T., Blinov A., Busigin A., Goremikin Y., Yeroxina L., Zverev A., Morozov V., Noviskiy A., Osipov Y., Platonova N., Romanov J., Yadgarov Y. va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan⁴.

O‘zbekistonda va mintaqalarda xizmatlar sohasini shakllantirish, sohada sherikchilikning turli shakllari va mexanizmlarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy, uslubiy va tashkiliy-huquqiy asoslari respublika iqtisodchi olimlaridan Sh.Zaynutdinov, M.Pardayev, M.Muhamedov, B.To‘rayev, S.Salayev, I.Ochilov, O.Hamidov, J.Sauxanov, A.Alimov, R.Adilchayev, F.Abdullayev kabi olimlarning

³ <https://www.researchgate.net/profile/Anthony Boardman>. Aidan Vining *The Political Economy of Public-Private Partnerships and Analysis of their Social Value*; Hodge G.A., Greve C. *Public-private partnership in turbulent times. Rethinking public-private partnerships: Strategic approaches for turbulent times*. Oxon: Routledge. 2013. P. 124; Hodge G.A., Greve C., Boardman A.E. *International Handbook in Public-Private Partnerships*. UK: Edward Elgar. 2012. pp.27-28.; <https://www.researchgate.net/publication/227724894> D. W. Brinkerhoff, J.Brinkerhoff. *Public-private partnerships*

⁴Г.А.Аванесова. Сервисная деятельность: историческая и современная практика, предпринимательство, менеджмент: Учеб. пособие. - М.: Аспект Пресс. - 2004. - 317, 1. с. А.Э.Айказян. Реализация инвестиционных промышленных проектов в сфере малого предпринимательства. М.: РАН, Ин-т. Экономики. – 2000, А.Н.Алейников. Предпринимательская деятельность. М. - 2003., Ю.П.Анискин. Организация и управление малым бизнесом. М.: ФиС. – 2002; Т.Д.Бурменко. Экономика сферы услуг. – Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2004.; Романов Ж.А. Сервисная деятельность М: Дашкови К. 2006.; Блинов А. Малое предпринимательство. Организационные и правовые основы деятельности. М., «ОСЬ-89», 1998.-336 с Бусыгин А.В. Предпринимательство. Учебник для вузов. М., ИНФРА-М,1997.-608 с.; Горемыкин В.Лизинг: практическое учебно-справочное пособие. М., ИНФРА-М,1997.-384 с.; Зверев А. Социальное партнерство в предпринимательстве. М.,изд. РУДН, 2001.-109 С.; Морозов В. , Морозов Л., Новицкий А., Свириденко Ю. Эффективность труда и качество обслуживания населения в сфере бытовых услуг /социально-экономический аспект / М., 1994.-179 с. Основы предпринимательского дела. Учебник. Изд.2-ое под ред. Ю.М.Осипова, Е.Е.Смирновой. М., Изд. БЕК, 1996.-476 с.; Партнеры предприятий. М., Центр ЭИМ, 1999.- 240 с. Платонова Н.А. Экономические проблемы бытового обслуживания в период формирования рынка. 1995.-123 с.

asarlarida keng yoritilgan⁵. Shuningdek, B.Ollanazarov turizm sohasida, U.Djumaniyazov uy-joy qurilishida, G.Utemuratova xizmat ko'rsatish sohasida DXSh rivojlanishining metodogiyasini takomillashtirish, K.Xalmuratov Qoraqalpog'iston Respublikasi ta'lim xizmatlari bozorida DXSh mexanizmidan samarali foydalanish, D.Saidov avtomobil sanoati va xizmat ko'rsatish sohalarida sherikchilik shakllari va xususiyatlari masalalarini tadqiq qilishgan⁶.

Ammo mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy lokomotivlaridan va Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasida sherikchilik shakllari va mexanizmlarining zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni to'liq aniqlanmaganligi, xizmat ko'rsatish sohalarida hudud va xizmat ko'rsatish konkret tarmog'i xususiyatlarini inobatga olgan holda xususiy sektor – xususiy sektor, davlat – davlat, davlat – xususiy sektor sherikchiligining o'ziga xos mexanizmlarini rivojlantirish, sherikchilik loyihalarining ko'lami va davomiyligi, shakllari, shart-sharoitlari va amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohalarida rivojlanish salohiyati past bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida sherikchilikning maqbul mexanizmlarini samarali qo'llash istiqbollari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilmaganligi tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

⁵ Зайнутдинов Ш.Н. Хизмат кўрсатиш соҳаси менежменти. – Т.: Иқтисодиёт, 2012; “Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари” [Монография] /М.М.Мухаммедов [ва бошқалар] – Самарқанд: Zarafshon, 2017 й; М.Қ.Пардаев, Р.Атабаев, Б.Р.Пардаев. Туризм соҳасини ривожлантириш имкониятлари. Рисола. Т.: ‘Fan va texnoloqiya’, 2007.; М.Қ.Пардаев ва Ҳ.Н.Мусаевлар умумий таҳрири остида. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. – Т.: Iqtisod-moliya, 2008. – 259 б.; Очилов И. Бозор муносабатлари шароитида хизматларнинг турлари ва уларнинг тавсифи. // Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. Т.: “IQTISODIYOT-MOLIYA”, 2008 й; Ҳамидов О.Ҳ. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқариш механизмини такомиллаштириш. Иқт. фан. доктори (DSc) дисс. автореферати. Самарқанд. 2017; Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. - Т.: Фан, 2009.; S.Salayev, F.Abdullayev Development problems of retail financial services in Uzbekistan/ ANNALS of The Polish Association of Agricultural and Agribusiness Economists. Vol.XVI. № 6. p.196-200. Polish Republik, Warszawa-Poznan-Szczecin, 2014; Alimov A., Allanazarov K., Adilchayev R., Sauxanov J., Salayev S. Ecotourism development in the Republic of Karakalpakstan: historical places and protected areas «Journal of Critical Reviews» Manuscript Number: JCR-2020-06-1376 <http://www.jcreview.com>

⁶ Б.Олланазаров. Давлат-хусусий шерикчилиги механизми асосида туризм соҳасида инвестицион фаолликни ошириш йўналишлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. Хива. 2019. - №1. Б.36-41.; Джуманиязов У.И. Давлат хусусий шерикчилиги асосида уй-жой қурилиши соҳасида корпоратив бошқарув механизмларини такомиллаштириш. PhD. илмий даражаси учун дисс. Автореф. Тошкент. ТДИУ, 2017; Утемуратова Г. Х. Хизмат кўрсатиш соҳасида давлат-хусусий шерикчилигининг шакллари, моделлари ва механизмлари // Иқтисодиёт ва молия журнали, 2021 йил № 10 (46), Б.2-12.; Қ.Халмуратов Қорақалпоғистон Республи-касида хизмат кўрсатиш соҳасида ДХШ нинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Монография, Тошкент, “Lesson Press” нашриёти, 2021. 9,8 б.т.; Саидов Д.Р. Автомобилсозлик саноати корхоналарида бенчмаркингни ташкил қилиш хусусиятлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси, Хива, 2020 й. №7. 76-82 бетлар.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘iston Respublikasi xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalari va mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiya hamda takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini baholash;

xorijiy davlatlarda xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini rivojlantirishning ilg‘or tajribalari va tashkiliy-huquqiy asoslarini qiyosiy tahlil qilish;

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish korxonalarida sherikchilik aloqalarining motivatsion mexanizmi va huquqiy asoslarini baholash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishining hududiy va tarmoq holatini baholash hamda guruhlash;

ishlab chiqarish, savdo-maishiy xizmatlar, moliyaviy va sug‘urta xizmatlari sohasida sherikchilik aloqalarini rivojlantirish shakllarini SWOT tahlil qilish va xususiyatlarini sotsiologik so‘rovlar asosida baholash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohalarida sherikchilik aloqalari shakllari va mexanizmlari xususiyatlari hamda infratuzilmasi rivojlanishini baholash;

ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kadrlar tayyorlash sohalarida sherikchilik aloqalari va mexanizmlarini asoslash;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida sherikchilik infratuzilmasi rivojlanishi samaradorligini baholash va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

Qoraqalpog‘istonda xizmatlar sohasida sherikchilikning alohida mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari, istiqbollarini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar olindi.

Tadqiqotning predmeti xizmat ko‘rsatish sohalarida sherikchilik aloqalari va mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy mushohada, abstrakt-mantiqiy fikrlash, suhbat, statistik, iqtisodiy, moliyaviy, korrelyatsion-regression tahlil, reyting va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“sharikchilik aloqalari”, “xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalari” tushunchalarining ta‘rifi sohada sherikchilik aloqalarini rivojlantirishning ilg‘or tajribalar va mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish korxonalarida sherikchilik aloqalarining motivatsion mexanizmiga ko‘ra takomillashtirilgan;

xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini tashkil qilishda qo‘shma korxonalar, lizing, franchayzing, outsorsing kabi ustuvor yo‘nalishlaridan foydalanish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanganligi bo‘yicha hududlarni tabaqalashgan guruhlariga ajratish takliflari ishlab chiqilgan;

hududda xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini samarali tashkil qilish muammolarini sotsiologik anketa so‘rovlari asosida baholashga ko‘ra xizmatlar

sohasida sherikchilik infratuzilmasini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning 2027-yilgacha prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xizmat ko‘rsatish sohasida sherikchilik aloqalarining genezisi, mexanizmlari tasnifi va sherikchilik aloqalarining muallif variantidagi ta‘rifi asoslangan;

hududda xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini tashkil qilish mexanizmlarini takomillashtirish muammolarini sotsiologik anketa so‘rovlari asosida baholangan va tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalari rivojlanganligi bo‘yicha tabaqalashgan guruhlariga ajratilgan;

Qoraqalpog‘istonda xizmatlar sohasida sherikchilik infratuzilmaviy mexanizmlari samaradorligi, ijtimoiy sug‘urta va tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirishning ko‘p omilli ekonometrik modellari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi unda qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika usullari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va joylarda xizmat ko‘rsatish sohasida sherikchilik aloqalari mexanizmlariga oid tadqiqotlarning nazariy-metodologik apparatini takomillashtirish, mavzu yuzasidan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish, joylarda xizmatlar sohasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish bo‘yicha dasturiy hujjatlar, kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyotining tarkibiy tuzilmasini yanada takomillashtirish, unda xizmatlar sohasining ulushini oshirish, zamonaviy va innovatsion xizmat turlarini joriy etish, xizmatlar sohasini rivojlantirishda sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan tarmoq va hududiy dasturlarni shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida axborot xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy xulosalar asosida:

“sharikchilik aloqalari”, “xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalari” tushunchalarining ta‘rifi xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini rivojlantirishning ilg‘or tajribalar va mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish korxonalarida sherikchilik aloqalarining motivatsion mexanizmiga ko‘ra takomillashtirish bo‘yicha taklifdan oliy o‘quv yurtlari “Tadbirkorlik asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Urganch davlat universiteti 2023-yil 26-iyundagi 91-son buyrug'i). Taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarining turli shakllari, tasnifiy xususiyatlari to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga hamda xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarining iqtisodiy mazmunining konseptual asoslarini rivojlantirish, xizmatlar sohasining o'ziga xos jihatlari tadqiq etgan holda sherikchilik turli mexanizmlarining metodologiyasini chuqur o'rganishga muayyan darajada imkon yaratgan;

xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini tashkil qilishda qo'shma korxonalar, lizing, franchayzing, autsorsing kabi ustuvor yo'nalishlaridan foydalanish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanganligi bo'yicha hududlarni tabaqalashgan guruhlariga ajratish bo'yicha takliflar Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi amaliyotida qo'llanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 14-sentyabrdagi SI/08-02/3742-son ma'lumotnomasi). Ushbu yangilikning amaliyotga joriy etilishi tufayli Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasi rivojlanganligi bo'yicha hududlarni tabaqalashgan guruhlariga ajratilgan va ushbu hududlarda aholining, xususan tadbirkorlarning milliy, madaniy va ishbilarmonlikka bo'lgan qiziqishlari hamda yaratilgan sharoitlar asosida hududlarda manzilli rivojlantirishning mahalliy dasturlarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilgan;

hududda xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini samarali tashkil qilish muammolarini sotsiologik anketa so'rovlari asosida baholashga ko'ra xizmatlar sohasida sherikchilik infratuzilmasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 14-sentyabrdagi SI/08-02/3742 son ma'lumotnomasi). Ushbu yangilikning amaliyotga joriy etilishi tufayli Qoraqalpog'istonda xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini yanada rivojlantirish muammolarini aniqlash darajasini oshirish, sherikchilik samaradorligini yanada oshirish bo'yicha xududiy strategiyaga tegishli tavsiyalar ishlab chiqishga imkon bergan;

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymatning 2027-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz qiymatlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan hududni istiqbolda rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 14-sentyabrdagi SI/08-02/3742-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotda qo'llanilishi Qoraqalpog'istonda 2027-yilga borib hududda xizmatlar sohasining YaHMDagi ulushini 1,6 marta va sohada faoliyat yuritayotgan subyektlar sonini 1,4 martagacha oshishiga imkon yaratib, xizmatlar sohasida mulkiy, kadrlar, axborot va sherikchilik infratuzilmaviy mexanizmining rivojlanish samaradorligi, ijtimoiy sug'urta va tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 153 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalari va mexanizmini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini rivojlanishining obyektiv zarurligi hamda uning ahamiyati, mintaqada xizmatlar turlarini rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribalari hamda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishda sherikchilik aloqalarining tashkiliy-huquqiy asoslari tadqiq qilingan.

Xizmatlar sohasida sherikchilik – bu ikki yoki undan ko'p xizmat ko'rsatuvchi KBXT subyektlari bilan tanlangan sherikning soha ixtisosligiga qarab eng yuqori nafni ko'zlab kredit yoki zarur asbob-uskunalar olish, mutaxassislarni topish va yollash, malakali ishchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash, zarur xom ashyo va mahsulotlarni tashish, boshqa biznes xizmatlarini ko'rsatishni nazarda tutuvchi og'zaki yoki yozma ravishda mustahkamlangan hamkorlik shaklidir.

Sheriklar o'rtasidagi foyda olish, muayyan tijorat manfaatlariga erishish uchun sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadidagi munosabatlarning barcha shakllari sheriklar o'rtasidagi qadriyatlar almashinuvini qayd etadigan bitimlar kabi iqtisodiy va huquqiy shaklda qayd etilishi kerak. Sherikchilikning alohida muhim sohalaridan biri bu logistika bo'lib, u konsessiya, franchayzing, lizing faoliyati va boshqalar kabi shakllarini ham o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasida sherikchilik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdan tashqari boshqa tarmoqlarda, xususan davlat-xususiy sherikchilik (DXSh) asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hodisasidir. Dissertatsiyada DXSh mohiyati mazmuni jihatidan AQSH, Avstraliya, Singapur, Kanada, Fransiya, Polsha, JAR, Germaniya tajribalari o'rganilib, ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan (1-jadvalga qarang).

Xizmatlar sohasida ham boshqa sohalardagi kabi sherikchilik aloqalari mulk shakllari va sektorlarga mansubligi nuqtai nazaridan quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratiladi. Jumladan: *“davlat – davlat”*, *“davlat - xususiy”* va *“xususiy - xususiy”* subyektlar sherikchilik aloqalari va h.k. Umuman olganda, sherikchilik aloqalari – bu bir necha tadbirkorlar o'rtasida tuziladigan shunday shartnomaviy

munosabatlarki, bunda tadbirkorlar pul yoki tovar shaklidagi o‘z faoliyati natijalarini almashtirishlari hisobiga zarur darajadagi foyda olishga imkon beradi.

1-jadval

Jahon mamlakatlarida “Davlat-xususiy sherikchiligi” (DXSH) tushunchasining mohiyati va mazmuni talqini⁷

Mamlakat/ DXSH ta'rifiga yondoshuvi	Davlat va xususiy sektor o'zaro manfaatli hamkorligi	Davlat va xususiy sektorning uzoq muddatli hamkorligi	Davlat sektoriga xususiy sektorni jalb qilish	Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalariga erishish	Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish	Ijtimoiy infratuzilma obyektlariga texnik xizmat ko'rsatish, foydalanish, rekonstruksiya qilish va qurish	Risk, vakolat va majburiyatlarni taqsimlash	Bitim tuzish
AQSH	+	+	-	+	+	+	-	+
Avstraliya	+	+	-	+	+	+	+	+
Singapur	+	+	-	-	+	+	+	+
Kanada	+	+	-	-	+	+	+	+
Fransiya	-	-	-	+	+	-	+	+
Polsha	+	-	+	+	+	+	+	-
JAR	-	+	+	-	+	+	-	+
Germaniya	-	+	+	-	+	+	-	-
O'zbekiston	+	+	-	-	+	+	+	+

Har bir tadbirkor eng samarali shakldagi sherikchilik aloqalaridan manfaatdor bo‘lgani holda, bu mavjud variantlarni solishtirma tahlilini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Tadbirkorlik harakatlari algoritmi bu har bir sherik bilan munosabatlarni eng samarali shaklini tanlashga imkon beradi.


Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston respublikasida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining holati va sohada sherikchilik aloqalari shakllari rivojlanishini baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamalakatimizda xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojlanishining hozirgi holati, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ishlab chiqarish va savdo-maishiy xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini tashkil qilish xususiyatlari, sotsiologik anketa so‘rovnomalari asosida sherikchilik aloqalari va mexanizmlarini takomillashtirish muammolari tadqiq qilingan.

Har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholisining hayot sifati darajasini oshishi bevosita davlatning iqtisodiy salohiyati, aynan xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanish darajasi bilan baholanadi. Iqtisodiyot nazariyasidan ma‘lumki, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilish uchun xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi 65-80 foiz atrofida bo‘lishi belgilangan. Jumladan, 2022-yilda dunyoning rivojlangan mamlakatlari hisoblangan AQSH YIMida xizmatlarning ulushi 76,7 foizni, Shveysariyada 71,5 foizni, Buyuk

⁷Черданцев В.П//inter-legal.ru/formy-gosudarstvenno-chastnogo-partnerstva-v-zarubezhnyh-stranah asosida muallif tomonidan takomillashtirildi

Britaniyada 70,6 foizni, Niderlandiyada 70,3 foizni, Yaponiyada 68,8 foizni tashkil qilganligini ko‘rish mumkin⁸.

2022-yilda O‘zbekiston Respublikasida YaIMda tarmoqlarning yalpi qo‘shgan qiymati 93,2 foizni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,8 foizni tashkil qilgan. Iqtisodiyot tarmoqlarini yalpi qo‘shilgan qiymatini sohalar bo‘yicha taqsimotini tahlil qiladigan bo‘lsak, xizmat ko‘rsatish sohalar ulushi eng yuqori bo‘lib 41,5 foizni tashkil qilgani holda, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 25,1 foizni, sanoat 33,4 foizni, qurilish sohasi esa 6,7 foizni tashkil qilgan (1-rasm).



1-rasm. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi YaIMning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha tarkibi⁹.

1-rasmga ko‘ra, mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining YIMdagi ulushi boshqa iqtisodiyot tarmoqlariga nisbatan yuqori bo‘lsada, dunyoning rivojlangan davlatlari ko‘rsatkichlari bilan solishtirganda ancha pastligicha qolmoqda. Chunki, 2022-yilda jahon iqtisodiyotida xizmatlarning ulushi 64,4 foizni tashkil qilgan bo‘lib, O‘zbekiston YIMda xizmatlar ulushi bo‘yicha dunyo mamlakatlari ichidagi quyi o‘rinlarda qolib kelmoqda. Demak, xizmatlar sohasini rivojlantirishda sherikchilik mexanizmi asosiy unsur hisoblanadi. Tadqiqot davomida o‘tkazgan tahlillarga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish sohalarida sherikchilik aloqalariga ta’sir qiluvchi salbiy omillar aniqlandi (2-rasmga qarang).


Yuqorida keltirilgan makrodarajadagi salbiy ta’sir qiluvchi omillar hududlarda xizmatlar sohasida KBXTni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tasdiqlangan yagona siyosat yoki konsepsiyaning shakllanmaganligi, davlat va KBXT, uning infratuzilmasi o‘zaro aloqalari mexanizmining yo‘qligi, KBXT kriminallashtirishining hamon saqlanayotganligi, soliq, amaldorlar va boshqa bosimlar, “Soyada” qolib faoliyat yuritayotgan KBXT subyektlari mavjudligi, KBXTda bandlarning ijtimoiy va iqtisodiy himoya qilinmaganligi kabi omillarni aytish mumkin.

Fikrimizcha, mikrodarajadagi salbiy ta’sir qiluvchi omillar sifatida me’yoriy-huquqiy (*milliy, mahalliy qonunchilikdagi bo‘shliqlar*), moliyaviy-iqtisodiy (*soliq tizimi, kredit imtiyozlari va h.k.*), ijtimoiy (*kadrlar tayyorlash, ijtimoiy sherikchilik va h.k.*), tashkiliy-texnik sabablar (*infratuzilma tashkil qilish, lizing, franchayzing*

⁸ <http://wdi.worldbank.org/table/4.2>.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari bo‘yicha muallif ishlanmasi.

faoliyatining rivojlanishi) va KBXT uchun sherikchilik aloqalari tizimi mexanizmini rivojlantirish sabablarini aytish mumkin.



2-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida sherikchilik aloqalari rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan salbiy omillar¹⁰.

Bundan tashqari, xizmatlar sohasini rivojlantirishda sherikchilik aloqalari, kooperatsiya munosabatlaridan samarali foydalanish, innovatsion tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, xizmat ko'rsatish va servis yo'nalishlarini ham xududiy darajada barqaror va mutanosib rivojlantirish, xizmatlar sohasi rivojlanishidagi hududiy hamda tarmoq nomutanosibliklarini bartaraf etish maqsadga muvofiq.

Ishlab chiqarishni tashkil etishda (yoki uni qayta qurishda) jihozlar lizing asosida olingan bo'lsa katta hajmda investitsiyalar zarur emas. Shu jihatdan lizingni ishlatish katta afzalliklarga ega. Bundan tashqari, lizingda ijara to'lovlari tovar bilan ham bersa bo'ladi. Zamonaviy lizingning ko'pgina shakllari mavjud bo'lib, bunda ijara to'lovlari pul shaklida to'lanadi.

Lizing fan-texnika taraqqiyoti hamda xususiy, jamoaviy va ijtimoiy manfaatlarni uyg'un ravishda birga qo'shish talablariga to'la-to'kis javob bera oladigan iqtisodiy faoliyat turidir. Moliyaviy qiyinchiliklar sharoitida lizing

¹⁰ Manba: muallif ishlanmasi

tadbirkorlarning eng yangi texnologiya va zamonaviy asbob-uskunalardan bahramand bo'lishiga imkon beradi.

Tahlillarimizga ko'ra, 2010-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi lizing xizmatlari bozori (LXB)da atigi 2 ta lizing beruvchilar faoliyat yuritgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 12 taga yetdi (2-jadval).

2-jadval

2010-2022-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi LXBda faoliyat yuritayotgan lizing beruvchilar soni dinamikasi

Yillar	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2022-yil	2022-yil 2005-yilga nisbatan, marta
Lizing beruvchilar soni	2	3	5	12	6

2022-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi LXBda lizing kompaniyalari ulushining o'sishi kuzatildi. Agar 2010-yilda LXBning 54,1 foizi lizing kompaniyalariga tegishli bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 68,5 foizga yetdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi LXBda 2010-2022-yillarda lizing bitimlarining dinamikasini 3-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2022-yilda 2010-yilga nisbatan LXBda tuzilgan bitimlar soni 2,4 martaga, bitimlar qiymati esa 8,7 martaga oshganligini ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval

2010-2022-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi LXBda lizing bitimlari portfeli dinamikasi

Yillar	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2022-yil	2022-yil 2010-yilga nisbatan, marta
Yil davomidagi yangi bitimlar					
Bitimlar soni, birlik	1938	3814	5875	4756	2,4 m
Bitimlar qiymati, mlrd. so'mda	8,3	19,4	54,7	72,6	8,7 m
Yil oxirida lizing portfeli					
Amal qilayotgan bitimlar soni, birlik	13068	17693	21012	23830	2,0 m
Qiymati, mlrd. so'm	149	245	336,6	818	8,3 m

2010-2022-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi LXBda amal qilayotgan shartnomalar soni 2,0 martaga, shartnomalar qiymati esa 8,3 martaga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Qoraqalpog'istonda lizing xizmalari sohasida sherikchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni hal qilish maqsadga muvofiq:

birinchidan, respublika bo'yicha lizing tashkilotlarini ko'rsatadigan xizmatlar portfelinin turlari va shakllari bo'yicha tanqidiy tahlil qilish hamda optimallashtirish;

ikkinchidan, Qoraqalpog‘istonning hududlari kesimida ko‘rsatilgan qishloq xo‘jaligidagi lizing xizmatlari bo‘yicha mavjud qarzdorliklarni bartaraf qilish mexanizmlarini ishlab chiqish;

uchinchidan, lizing xizmatlari tarkibida zamonaviy, innovatsion lizing xizmatlarining ulushini oshirish bo‘yicha axborot-maslahat faoliyatini kuchaytirish;

to‘rtinchidan, sanoat ishlab chiqarishi, AKT, arxitektura va dizayn, 3D modellashtirish, qishloq xo‘jaligidan tashqari, sohalardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar lizingi kabi xizmatlarni kengroq rivojlantirish.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalari va mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalarida Qoraqalpog‘istonning tuman va shaharlaridan jami 334 dan ortiq respondentlar qatnashdi. Ularning 41,6 foizi (139 nafari) yakka tadbirkorlar, 21,6 foizi (72 nafari) fermer xo‘jaliklari, 12 foizi (40 nafari) kichik korxonalar, 13,8 foizi (46 nafari) MCHJlar va qolgan 11 foizi yoki (37 nafari) boshqa tashkiliy-huquqiy shakllardagi subyektlardir.

Respondentlardan mintaqada kichik biznesni rivojlantirish, xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilish, aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha fikrlari o‘rganildi. Shulardan, “Sizningcha, aholini xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga asosan nimalar to‘sqinlik qiladi?” degan savolga respondentlar quyidagicha javob berishgan (4-jadval).

4-jadval

Aholini xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga to‘sqinlik qiladigan omillar haqida respondentlarning javoblari taqsimoti¹¹

Javoblar mazmuni	Respondentlar	
	Soni	foizi
Mablag‘ yetishmasligi	151	45,2
Xatarning yuqoriligi	29	8,7
Vaqt yetishmasligi	19	5,7
Foyda normasining pastligi	43	12,9
Personalning maxsus bilim darajasi pastligi	20	6
Turli ixtisoslashgan bozor shoxobchalarining shakllanmaganligi	16	4,8
Mahalliy hokimiyatning tadbirkorlar tashabbuslarini yetarli qo‘llab-quvvatlamasligi	28	8,4
Axborot va kommunikatsiya xizmatlarini yaxshi rivojlanmaganligi	9	2,7
Infratuzilmaning rivojlanmaganligi	16	4,8
Boshqalar	3	0,8

Anketa-so‘rovnoma yakunida soliq yukini pasaytirish, soliqlardan imtiyoz berish, imtiyozli kreditlar ajratish, kredit berishni soddalashtirish, sherikchilikni rivojlantirish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlashni oshirish, ushbu sohada yetuk kadrlarni yetishtirish va amaliy o‘quv seminarlarni yanada tashkil etishni ko‘paytirish, xizmatlar sohasidagi sherikchilikni rivojlantirishda davlat tomonidan imtiyozlar yaratish, yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish, tadbirkorlik sohasida davlat tomonidan

¹¹ Sotsiologik anketa-so‘rovnoma natijalari asosidagi muallif ishlanmasi.

huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tartibga solish, tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvlarni keskin kamaytirish zarurligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini rivojlantirish va mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida mintaqada xizmatlar sohasi rivoji va sherikchilik infratuzilmasi rivojlanishi baholangan va xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari belgilangan, shuningdek, tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sohasida sherikchilik mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari va xizmatlar sohasi rivojlanishini prognozlashning ekonometrik modellari ishlab chiqilgan.

Xizmat ko‘rsatish sohasining shakllanishi va rivojlanishini ta‘minlovchi eng muhim omil sifatida sherikchilik tizimini yaratishda infratuzilmani shakllantirishda yagona konseptual yondashuvga amal qilish kerak:

- infratuzilma nafaqat turli mulkchilik shakllari asosida faoliyat yurituvchi xizmatlar sohasi subyektlarining samarali va tizimli ishlashi, balki ularning barqaror rivojlanishi uchun ham sharoit yaratishi kerak;

- xizmat ko‘rsatish sohasida sherikchilik infratuzilmasi qotib qolgan qat‘iy tuzilma emas, balki dinamik o‘zgaruvchan, barcha tizim tashkilotlari bilan aloqada bo‘luvchi, sherikchilik natijasida o‘zaro munosabatlarning yangi tur va shakllarining paydo bo‘lishi mumkin;

- infratuzilma xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanish darajasiga va biznes tuzilmalarining ehtiyojlari, ularning tarmoq va funksional ixtisoslashuvi, salohiyati va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda mos bo‘lishi kerak;

- infratuzilma nafaqat barcha xizmat ko‘rsatish sohasidagi biznes tuzilmalari uchun (joylashuvi, tadbirkorlik xizmatlarining narxi va sifati, real imkoniyatlardan xabardorligi va h.k. bo‘yicha) foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi, balki barcha xizmatlar sohasini rivojlantirishning eng muhim muammolarini hal qilish imkoniyatlarini ham ta‘minlashi kerak (lizing, franchayzing va boshqalar orqali mulkiy va axborot ta‘minoti, kadrlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish, shuningdek, moliyaviy va soliq maslahatlaridan foydalanish va h.k.);

- bir hududda, boshqaruvning turli darajalarida (milliy, hududiy, mahalliy) infratuzilma obyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish;


- ratsional infratuzilma xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlari faoliyatida multiplikativ samarani oshishini ta‘minlaydi.¹²

Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari uchun infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha izchil, puxta o‘ylangan barqaror siyosatning yo‘qligi, bir tomondan, barcha shart-sharoitlar yaratilayotgan bo‘lsada, ikkinchi tomondan, respublikamizning barcha hududlarida infratuzilma unsurlari to‘plami juda tor va asosan inkubatorlar, turli yo‘nalishdagi IT parklar, biznes markazlar, ijtimoiy va ta‘lim markazlari bilan cheklangan xolos. Hozirgi kunda ushbu jarayonni tizimlashtirish va infratuzilma tarkibidagi tashkilotlarning o‘zaro aloqalarni o‘rnatish, ularni mintaqaviy va tarmoq uyushmalariga birlashtirish, xizmatlar sohasini baholashga imkon beruvchi

¹²Ручкан Л.М. Инфраструктура как форма поддержки развития малого предпринимательства. - М., "Про-Пресс, 2001. –с. 224.

umumiy mezonlar va sifat standartlarini aniqlash, mavjud infratuzilmaning samaradorligi va barqarorligini baholash zarurati mavjud. Infratuzilma obyektlarini tartibga solish vositalari sifatida ularni mahalliy hokimiyat organlarida akkreditatsiyadan o'tkazish, shuningdek, turli uyushmalar va xo'jalik birlashmalari doirasida o'zini-o'zi tartibga solish jarayonlarini rivojlantirish, boshqaruvning turli darajalarida monitoring tizimini yaratish maydonga chiqadi.

Turli darajadagi xizmat ko'rsatish sohasida sherikchilik munosabatlarini qo'llab-quvvatlash infratuzilmasining asosiy tarkibiy unsurlari 3-rasmda keltirilgan (3-rasmga qarang).



3-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida KBXT sherikchilik munosabatlarini qo'llab-quvvatlash infratuzilmasining asosiy unsurlari¹³

¹³ Ручкан Л.М. Инфраструктура как форма поддержки развития малого предпринимательства.- М.: "Про-Пресс. 2001. С.82.

Fikrimizcha, xizmat ko'rsatish sohasida sherikchilik aloqalarini qo'llab-quvvatlash shakllari orasida aynan qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini yaratishga alohida o'rin berilishi kerak.

Korxonalar va xizmat ko'rsatish bo'yicha mumkin bo'lgan sheriklar tasnifi ishlab chiqildi, unga ko'ra, xizmat ko'rsatish va servis sohalari uchun sheriklik infratuzilmaviy tashkilotlarini 13 ta toifaga ajratdik. Jumladan, moliyaviy va birjaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar, lizing va franchayzing xizmati, konsalting firmalari, axborot, bojxona, innovatsion xizmatlar, transport, qo'riqlash xizmati ko'rsatuvchi tashkilotlar, o'qitish va qayta tayyorlash xizmatlari, soliq, ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaviy sheriklar, hakamlar sudlari va boshqa sheriklik qiluvchi infratuzilma tashkilotlaridan tashkil topadi (4-rasmga qarang).


Bundan tashqari, xizmatlar sohasi uchun sheriklarning butun doirasini ta'minlaydigan turli xil tarkibiy unsurlar uyushmalar, hunarmandlar uyushmasi, savdo-sanoat palatalari, faoliyatning barcha sohalarida, shu jumladan, o'zini-o'zi ta'minlash asosida konsalting xizmatlari tizimini yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida birinchi guruhga mansub sherikchilik infratuzilmasi tashkilotlaridan moliyaviy va birjaviy xizmat ko'rsatuvchi banklar 82 ta, sug'urta 84 ta, auditorlik firmalari 3 tani tashkil qiladi. Ikkinchi guruhga mansub lizing va franchayzing xizmati ko'rsatuvchi subyektlar 28 ta lizing kompaniyalari, 24 ta lizing vositachisi, 33 ta lizing obyektlari ta'minotchilari faoliyat yuritayпти, franchayzing tashkilotlari ro'yxatdan o'tmagan.

Uchinchi guruhga tegishli konsalting xizmati ko'rsatuvchilar 18 ta, yakka konsultantlar esa 6 tani tashkil etgan. Umumiy va xorijiy maslahatchilar xususida ma'lumotlar olish imkoni bo'lmaganligi sababli, ularni qiymati nolga teng. To'rtinchi guruhga mansub sherikchilik infratuzilmasi subyektlaridan Qoraqalpog'istonda iqtisodiy axborot agentliklari 8 ta, Savdo-sanoat palatasi axborot kanallari 5 ta, internet va AKTlar 16 ta, ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar 13 tani tashkil qiladi. Beshinchi guruhda infratuzilma subyektlaridan respublikamizdagi kabi Qoraqalpog'istonda ham Bojxona boshqarmasi, uning tegishli postlari va maskanlari faoliyat ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, oltinchi guruhda sherikchilik infratuzilmasi subyektlaridan Qoraqalpog'istondagi 54 ta o'z qimmatli qog'ozlarini chiqargan kompaniyalar va jamiyatlar mavjud.

Yettinchi sherikchilik infratuzilmasi bo'lgan transport sohasida sherikchilik subyektlari temir yo'l sohasida 21 ta, aviatsiya xizmati sohasida 15 ta va avtomobil xizmatlari sohasida 622 ta sherikchilik infratuzilmasi subyektlari faoliyat yuritadi.

To'qqizinchi qo'riqlashni ta'minlash xizmati sohasida shu kungacha xususiy sektorda bu faoliyat Qoraqalpog'istonda yo'lga qo'yilmagan va shahar (tuman)larda davlat milliy gvardiya tizimining qo'riqlash xizmati faoliyat yuritayпти va buni istiqbolda albatta inobatga olish hamda xizmatlar sohasida qo'riqlash bo'yicha xususiy firmalar ochish imkoniyatlarini ko'rishimiz kerak.



4-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohasidagi infratuzilmaviy shiriklar tasnifi

Manba: Muallif ishlanmasi

Xizmatlar sohasida sherikchilik infratuzilmasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashning bir qator yo'nalishlari mavjud va yangi innovatsion turlari kirib kelayotgan bo'lib, barcha sherikchilik infratuzilmalari ko'p qirrali shakllari orasida infratuzilmani mustaqil tizim sifatida shakllantirishdan ko'zlangan maqsad soha subyektlarini huquqiy, moliyaviy, mulkiy, shuningdek, har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash orqali uni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlar tomonidan keng ko'lamlı biznes xizmatlarini ko'rsatishdan iborat.

Xizmatlar sohasida sherikchilik mexanizmini tashkil etuvchi infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- xizmatlar sohasida mulkni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash;
- sohaning axborot-kommunikatsiya ta'minoti;
- sohani kadrlar bilan ta'minlash, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- xizmatlar sohasida ijtimoiy sheriklik va ijtimoiy himoya tuzilmalarini rivojlantirish va h.k.

Respublikamizdagi kabi Qoraqalpog'istonda ham xizmatlar sohasini mulkiy qo'llab-quvvatlash infratuzilmasining unsurlarini shakllantirish uchun muhim zaxira to'lovga layoqatsiz, turib qolgan ko'chmas mulk obyektlari, samarasiz korxonalarni tugatish paytida, ularning negizida xizmat ko'rsatuvchi kichik biznes subyektlarini joylashtirish, shuningdek, ularni qayta tashkil etish yoki qayta ixtisoslashtirish paytida aynan urg'un xizmatlar sohasiga qaratish mumkin.

Bugungi globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotining eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni baynalmilallashuvi hisoblangani holda, dunyoning hech bir yirik davlati yoki korxonasi o'z negizida faqat o'z resurslariga tayangan holda xalqaro sherikchilik va mehnat taqsimotining imkoniyatlari hamda afzalliklaridan foydalanmagan holda samarali rivojlana olmaydi. Shu sababli qo'shma korxonalar tashkil qilish orqali nisbatan kam intensivli bo'lgan klassik eksportdan emas, balki xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tashkil qilish orqali nafaqat ishlab chiqarish, balki xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etuvchi ilmiy-amaliy masalalardan hisoblanadi.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlaridagi kabi O'zbekistonda ham xorijiy investitsiyalar, investitsiya iqlimi, shu jumladan, Qoraqalpog'istonda ham dolzarb muammolardan sanaladi. Chunki, Rossiya va Ukraina o'rtasida uzoq vaqt davom qilayotgan urush asnosida ham oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg'i energetika resurslari baholarining keskin oshishi, moliyaviy siyosatning keskinlashuvi umumiy investitsiya muhitiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Shunday bo'lsada, qo'shma korxonalarni tashkil qilish iqtisodiyotning barcha tarmoqlari kabi xizmatlar sohasida ham sherikchilikni rivojlantirishning ustuvor shakli sanaladi.

Quyidagi jadvalda Qoraqalpog'iston Respublikasida 2010-2022-yillarda faoliyat yuritgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar (XIİK) soni dinamikasi keltirilgan (5-jadvalga qarang).

Jadvalga ko'ra eng ko'p XIİKlar Respublika markazi Nukus shahrida (47 ta yoki 23,9 foiz), keying yillarda hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor

qaratilayotgan Mo‘ynoq tumanida (39 ta yoki 19,8 foiz) va Qo‘ng‘irot tumanlari (13 ta yoki 6,6 foiz) hissasiga to‘g‘ri keladi.

5-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2010-2022-yillarda faoliyat yuritgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi yuridik shaxslar¹⁴ (qo‘shma korxonalar)

Hududlar	2010-yil	2012-yil	2014-yil	2016-yil	2018-yil	2020-yil	2022-yil	2022-yil 2010-yilga nisbatan, marta
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	40	51	46	67	121	164	196	4,9
Amudaryo	5	6	5	4	5	5	7	1,4
Beruniy	2	2	3	3	5	10	10	5,0
Bo‘zatov	0	0	0	0	0	2	7	7,0
Qorao‘zak	0	1	3	5	7	10	11	11,0
Kegeyli	2	2	2	4	9	7	6	3,0
Qo‘ng‘irot	1	2	4	7	8	7	13	13,0
Qonliko‘l	0	1	1	1	6	6	7	7,0
Mo‘ynoq	0	1	2	5	17	29	39	39,0
Nukus	2	3	4	3	9	9	9	4,5
Taxiatosh	3	3	0	0	11	11	9	3,0
Taxtako‘pir	1	1	0	3	6	6	4	4,0
To‘rtko‘l	3	4	2	2	1	5	9	3,0
Xo‘jayli	2	4	4	6	3	4	4	2,0
Chimboy	3	3	3	3	6	5	5	1,7
Shumanay	0	1	1	1	2	5	3	3,0
Ellikqal‘a	2	2	1	2	4	4	6	3,0
Nukus shahri	14	15	11	18	22	39	47	3,4

Eng kam ulush esa Shumanay (3 ta), Taxtako‘pir, Xo‘jayli (4 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Biroq keyingi 7 yilda XIKlar faoliyatida Qoraqalpog‘istonda 3,0 barobar o‘shish bo‘lgan.

Xizmatlar sohasida sherikchilik munosabatlarining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu ijtimoiy sug‘urta va tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sohasidagi hamkorlik aloqalari sanaladi. Chunki, ijtimoiy sug‘urta va tibbiy-ijtimoiy xizmatlar har qanday davlatning ijtimoiy siyosatida eng dolzarb ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi – kambag‘allikni qisqartirish va aholi faravonligini oshirishdan iborat bo‘ladi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘shish hisobiga erishiladi”¹⁵. Albatta mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish uchun amalga oshirilayotgan tadbirlar orqali ehtiyojmand aholi qismi manzilli qo‘llab-quvvatlash, zarur ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlanib kelmoqda.

Qoraqalpog‘istonda ham respublikamizdagi kabi 2021-yildan boshlab vaqtincha ishsizlik nafaqasi 3 marta oshirilishi hamda jarayonda talab


¹⁴ Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr, // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

qilinadigan 6 ta hujjat kabi eski byurokratik to‘siqlarning bartaraf etilishi ijtimoiy xizmatlar ko‘lami va sifatini oshirishda muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Ijtimoiy sug‘urta va tibbiy-ijtimoiy xizmatlarning rivojlangan mamlakatlardagi ijtimoiy himoyani tashkil qilish tizimida tutgan o‘rni juda muhim sanaladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish har qanday davlat va mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlovchi muhim vositalardan bo‘lib, ushbu sohaning ulushini oshib borishi taraqqiyotning asosiy indikatorlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra rivojlangan davlatlarda YaHMda xizmatlar ulushi 70 foiz atrofida ekanligi aniqlanildi. Shu sababdan dissertatsiyada tadqiqot obyekti bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish masalalari qarab chiqildi.

Biroq mintaqada keyingi yillarda xizmatlar sohasining YaHMdagi ulushini pasayishi sohani rivojlantirish va istiqbollarni belgilash bo‘yicha tadqiqotlarni olib borish lozimligini asoslaydi. Jumladan, 2010-yilda YaHMda xizmatlar sohasining ulushini 50,1 foizni tashkil qilganligi kuzatilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib bu ko‘rsatkich 38,5 foizga qadar kamaygan (5-rasm).



5-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasida YaHM tarkibiy tuzilishining o‘zgarish dinamikasi¹⁶.

Tabiiyki bu yerda xizmatlar sohasi ulushini o‘zgarishiga mos ravishda sanoatning ulushini oshishi kuzatilmoqda va ijobiy holatlardan biri sifatida qaralishi mumkin. Biroq, taraqqiyotning bugungi bosqichida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun aynan xizmatlar sohasining ulushini oshirish istiqbolli yo‘nalishlardan hisoblanadi. Chunki, aynan xizmatlar sohasi boshqa sohalarning taraqqiyoti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va barqaror iqtisodiy o‘shishning muhim generatori vazifasini bajaradi.

Buni asoslash uchun quyidagi tadqiqot natijalariga e‘tiborni qaratib o‘tamiz. Ya‘ni, mintaqada YaHMning o‘shishini ta‘minlashda tarmoqlar ta‘siri baholandi. Amalga oshirilgan regression tahlil natijalariga ko‘ra quyidagi modelga ega bo‘lindi. Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun 2010-2022-yillar ma‘lumotlaridan foydalanilgan bo‘lib, ushbu ma‘lumotlarning barchasi 2010-yil narxlariga o‘tkazilgan holda real qiymatlari aniqlangan.

¹⁶ Manba: muallif ishlanmasi

$$\ln(\text{GRP})=1,24+0,36*\ln(\text{AG})+0,16*\ln(\text{IN})+0,09*\ln(\text{C})+0,41*\ln(\text{SER}), \quad (1)$$

bu yerda, GRP – Yalpi hududiy mahsulotning 2010-yil narxlarida ifodalangan qiymati, mlrd. so‘m;

AG – qishloq xo‘jaligida yaratilgan qiymatning 2010-yil narxlarida ifodalangan qiymati, mlrd. so‘m;

IN – sanoatda yaratilgan qiymatning 2010-yil narxlarida ifodalangan qiymati, mlrd. so‘m;

C – qurilishda yaratilgan qiymatning 2010-yil narxlarida ifodalangan qiymati, mlrd. so‘m;

SE – xizmatlar sohasida yaratilgan qiymatning 2010-yil narxlarida ifodalangan qiymati, mlrd. so‘m.

Keltirib o‘tilgan modelning adekvatligini asoslash uchun zarur bo‘lgan mezonlar natijalari 6-jadvalda keltirib o‘tilgan bo‘lib, ularning natijalari baholangan koeffitsiyentlar hamda modelning ishonchlilik darajasi yuqori ekanligini asoslamogda. Ushbu natijalar mazkur model asosida xulosalar chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

6-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilgan qiymatning YaHM mahsulotga ta’siri baholash bo‘yicha amalga oshirilgan regression tahlil natijalari¹⁷

Model 3: OLS, using observations 2010-2022 (T = 13) Dependent variable: L_GRP

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
Const	1.24152	0.103260	12.02	<0.0001	***
L_AG	0.356397	0.0249355	14.29	<0.0001	***
L_IN	0.158515	0.00660543	24.00	<0.0001	***
L_C	0.0898079	0.00730999	12.29	<0.0001	***
L_SER	0.406374	0.0278614	14.59	<0.0001	***
Mean dependent var	8.180717		S.D. dependent var	0.297841	
Sum squared resid	0.000058		S.E. of regression	0.002683	
R-squared	0.999946		Adjusted R-squared	0.999919	
F(4, 8)	36958.57		P-value(F)	4.29e-17	
Log-likelihood	61.67861		Akaike criterion	-113.3572	
Schwarz criterion	-110.5325		Hannan-Quinn	-113.9378	
Rho	0.127737		Durbin-Watson	1.425589	

Olingan natijalarga ko‘ra mintaqada YaHMni o‘shishiga eng yuqori ta’sir xizmatlar sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ya’ni, xizmatlar sohasining bir foizga o‘shishi YaHMning 0,41 foizga o‘shishini ta’minlamoqda. Qishloq xo‘jaligining rivojlanishi YaHM o‘shishini ta’minlovchi keyingi muhim indikator bo‘lib, sohada yaratilgan qiymatning bir foizga o‘shishi YaHMning 0,36 foizga oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda YaHM tarkibida sanoatning ulushini keskin oshishi kuzatilgan bo‘lsada, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri pastligicha qolmoqda. Shunga o‘xshash holatni qurilish sohasida ham kuzatish mumkin, ya’ni mazkur sohada ulush ma’lum diapazonda terbanib turishi aniqlangan bo‘lsada, umumiy holatda ijobiy tendensiyani ko‘rish mumkin. Biroq, sohaning iqtisodiy o‘shishni ta’minlashdagi ahamiyati pastligicha qolmoqda.

Tadqiqot natijalaridan ma’lumki, mintaqada iqtisodiy o‘shishni ta’minlash uchun xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish talab qilinadi. Chunki, xizmat ko‘rsatish sohasi boshqa tarmoqlarning rivojlanishi uchun sharoit yaratgani holda

¹⁷ Manba: muallif ishlanmasi.

sinergetik samara beradi. Keltirib o‘tilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda hududda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining keyingi yillar uchun prognoz qiymatlari ko‘p variantli ekonometrik modellar asosida qarab chiqildi.

Prognozni amalga oshirish uchun eng maqbul bo‘lgan variantlar va ular natijalarining qiyosiy tahlillariga e‘tibor qaratib o‘tildi. Shuningdek, taklif qilinayotgan modellar ichida ishonchlilik darajasi yuqori bo‘lgani aniqlanib, uning asosida ishlab chiqilgan prognoz qiymatlari asosida istiqboldagi ko‘rsatkichlar belgilandi. Asosan ikkita ko‘rsatkichning prognoz qiymatlarini ishlab chiqishga e‘tibor qaratib o‘tildi. Bular, xizmat ko‘rsatish sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymat hamda jami ko‘rsatilgan xizmatlarning real qiymati.

Mazkur pasayishni hisobga olish uchun qo‘shimcha omildan foydalanildi. Ushbu omilda barcha yillar uchun nol, faqat 2020-yil uchun bir raqamidan foydalanilgan va ushbu omil D bilan belgilangan. Amalga oshirilgan regression tahlil natijalariga ko‘ra quyidagi modelga ega bo‘lindi.

$$SER = 937,4 - 142,9 * D + 104,5 * t, \quad (2)$$

bu yerda *SER* – Qoraqalpog‘istonda xizmatlar sohasida qo‘shilgan qiymatning real qiymati milliard so‘m (2010-yil narxlarida);

D – 2020-yilda sodir bo‘lgan pandemiya sababli qilingan cheklovlar ta‘sirini hisobga olish uchun foydalanilgan omil;

t – trendni ifodalaydi.

Ushbu taklif qilinayotgan modelning adekvatligini asoslash uchun zarur bo‘lgan barcha mezonlar va ularning me‘yorlari, aniqlangan ko‘rsatkichlari 7-jadvalda keltirib o‘tilgan.

7-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning prognoz ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun amalga oshirilgan regression tahlil natijalari¹⁸

Model 7: OLS, using observations 2010-2022 (T = 13) Dependent variable: SER

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
const	937.304	9.22472	101.6	<0.0001	***
D	-142.949	16.9837	-8.417	<0.0001	***
time	104.496	1.20953	86.39	<0.0001	***
Mean dependent var	1657.781		S.D. dependent var	396.7688	
Sum squared resid	2409.005		S.E. of regression	15.52097	
R-squared	0.998725		Adjusted R-squared	0.998470	
F(2, 10)	3915.925		P-value(F)	3.37e-15	
Log-likelihood	-52.38933		Akaike criterion	110.7787	
Schwarz criterion	112.4735		Hannan-Quinn	110.4303	
rho	0.036447		Durbin-Watson	1.778897	

Baholangan barcha koeffitsiyentlar Student mezoni natijalari bo‘yicha belgilangan kritik ko‘rsatkichlardan ancha yuqori bo‘lib, ularning ehtimollik ko‘rsatkichlari deyarli nolga teng ekanligini kuzatish mumkin. Determinatsiya koeffitsiyentining 0,99 ga teng bo‘lishi tanlab olingan omillarning qanchalik darajada to‘g‘riligini asoslaydi. Fisher mezoni esa yuqorida keltirib o‘tilgan

¹⁸ Manba: muallif ishlanmasi.

fikrlarni isboti bo‘lib, ushbu mezon bo‘yicha aniqlangan ko‘rsatkich ham juda yuqori bo‘lib, ehtimollik bo‘yicha aniqlangan qiymat deyarli nolga teng.

Vaqtli qatorlar ko‘rinishdagi ma’lumotlarni modellashtirganda muhim muammolardan biri bu avtokorrelyatsiya muammosi hisoblanadi. Ushbu muammo mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash uchun Durbin-Uatson mezonidan foydalaniladi. Mazkur model bo‘yicha aniqlangan qiymat 1,78 ni tashkil qilmoqda. Ushbu mezon bo‘yicha aniqlangan qiymat uning jadvalda keltirilgan quyi ($DL=0,86$) va yuqori ($DU=1,56$) oralig‘ida bo‘lsa, qaror qabul qilish uchun asosli bo‘la olmaydi. Ammo agarda yuqori qiymatidan oshiq bo‘lsa avtokorrelyatsiya muammosi yo‘q deb qaror qabul qilishga yetarli deb qaraladi. Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinadiki, ishlab chiqilgan modelda avtokorrelyatsiya muammosi mavjud emas.

Taklif qilinayotgan modelning ishonchlilik darajasini yuqoriligini hisobga olgan holda undan foydalanib keyingi besh yil uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning istiqboldagi prognoz qiymatlari ishlab chiqildi (8-jadval).

8-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning istiqboldagi prognoz qiymatlari¹⁹

For 95foiz confidence intervals, $t(10, 0.025) = 2.228$

Yillar	SER	Prognoz qiymatlari	Standart xatolik	95 foizlik interval
2023	Aniqlanmagan	2400.25	18.4296	(2359.19, 2441.31)
2024	Aniqlanmagan	2504.74	19.0413	(2462.32, 2547.17)
2025	Aniqlanmagan	2609.24	19.7083	(2565.33, 2653.15)
2026	Aniqlanmagan	2713.74	20.4252	(2668.23, 2759.25)
2027	Aniqlanmagan	2818.23	21.1869	(2771.03, 2865.44)

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra ikkinchi ustunga aniqlanmagan deb yozilgan, chunki prognoz qilinayotgan davr uchun real qiymatlarni aniqlash imkonsiz, shu sababli foydalanilgan dastur ushbu ustunda aniqlanmagan yozuvini taqdim qiladi. Mazkur prognoz natijalariga to‘xtalishdan oldin, uning ishonchlilik darajasini asoslash uchun keltirib o‘tilgan ba’zi ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tamiz. Ya’ni, standart xatolik ko‘rsatkichi juda kichik bo‘lib, hisoblangan prognoz natijalarini ishonchlilik darajasini yuqoriligini asoslaydi. Bundan keltirilgan rasmdan ko‘rish mumkinki (8-jadvalga qarang), model asosida baholangan qiymatlarni haqiqiy qiymatlar bilan qanchalik darajada mos ekanligini kuzatish mumkin.

Prognoz natijalaridan ma’lum bo‘lishicha keyingi yillarda mintadaqa xizmatlar sohasida yaratilgan qiymatning barqaror o‘shish sur‘ati kuzatiladi. Ya’ni, 2027-yilga borib ushbu ko‘rsatkichning o‘zgarish narxlardagi (2010-yil narxlari) qiymati 2818,23 milliard so‘mni tashkil qiladi. 2022-yildagiga nisbatan 1,22 barobarga yuqoridir. Boshqacha aytganda, keyingi besh yilda xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning o‘rtacha o‘shish sur‘ati 4,0 foizni tashkil qiladi.

¹⁹ Manba: muallif ishlanmasi

Agarda prognoz natijalarini birinchi model natijalari bilan birlashtiradigan bo'lsak, keyingi besh yilda mintaqada yaratilgan yalpi hududiy mahsulotning har yili 1,6 foizga oshishi faqat xizmatlar sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat hisobiga ta'minlanishi aniqlandi. Boshqacha aytganda, xizmatlar sohasida qo'shilgan qiymatning oshishi hisobiga yalpi hududiy mahsulotning 1,09 barobarga oshishi ta'minlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish tendensiyalari hamda uning umumiy holatini baholash uchun ko'rsatilgan xizmatlar hajmini ham prognoz qiymatlari ishlab chiqildi. Ushbu ko'rsatkich uchun mos modelni tanlash uchun ham grafik usulidan foydalanildi (9-jadval).

9-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'rsatilgan qiymatining prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash uchun amalga oshirilgan regression tahlil natijalari²⁰

Model 10: OLS, using observations 2011-2022 (T = 12) Dependent variable: S

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
const	445.480	142.353	3.129	0.0140	**
time2	8.58482	2.50052	3.433	0.0089	***
D	-223.942	52.0204	-4.305	0.0026	***
S_1	0.498930	0.197025	2.532	0.0351	**
Mean dependent var	1797.174		S.D. dependent var	806.0303	
Sum squared resid	18040.28		S.E. of regression	47.48721	
R-squared	0.997476		Adjusted R-squared	0.996529	
F(3, 8)	1053.715		P-value(F)	9.98e-11	
Log-likelihood	-60.92000		Akaike criterion	129.8400	
Schwarz criterion	131.7796		Hannan-Quinn	129.1219	
rho	0.456421		Durbin's h	2.163286	

Ushbu grafikdan kelib chiqqan holda dastlab kvadratik modeldan foydalanildi, ammo modelning adekvatligini asoslash uchun taklif qilingan mezonlar ichidagi Durbin-Uatson statistikasi avtokorrelyatsiya muammosi mavjudligini ko'rsatgani sababli boshqa modellardan foydalanishga qaror qilindi. Amalga oshirilgan turli regression tahlillarni qiyosiy tahlili natijasida quyida keltirib o'tilgan modeldan foydalanishning maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Ya'ni ushbu model boshqalariga nisbatan ishonchli ekanligi asoslanildi.

$$S_t = 445,5 + 8,6 * t^2 - 223,9 * D + 0,5 * S_{t-1}, \quad (3)$$

bu yerda S – Qoraqalpog'iston respublikasida ko'rsatilgan xizmatlar real qiymati milliard so'm (2010-yil narxlarida).

Ushbu modelning adekvatligini asoslash uchun zarur bo'lgan barcha mezonlar uning adekvatligi va ishonchlilik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Eng muhimi boshqa modellarda muammoga sabab bo'layotgan avtokorrelyatsiyaning bartaraf etilganligini Durbin – Uatson statistikasi ko'rsatmoqda.

Keltirib o'tilgan barcha natijalar mazkur modeldan foydalangan holda

²⁰ Manba: muallif ishlanmasi.

prognoz qiymatlarini shakllantirish maqsadga muvofiq ekanligini asoslamoqda. Chunki, mazkur model asosida baholangan ko'rsatkichlar bilan haqiqiy qiymatlarning deyarli ustma-ust tushishi uning qanchalik darajada ishonchli ekanligini ko'rsatadi.

Keyingi besh yilda ko'rsatilgan xizmatlarning yuqori sur'atlardagi o'sishi ta'minlanadi, ya'ni yillik o'rtacha o'sish sur'ati 11,9 foizni tashkil qilgani holda 2027-yilga borib 5875,8 milliard so'mga yetishini ta'minlaydi. Boshqacha aytganda 2022-yildagiga nisbatan 1,75 barobarga oshishi ta'minlanadi.

Umuman olganda, xizmatlar sohasida kichik biznes subyektlarini sherikchilik aloqalarini mulkiy qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi, franchayzing va qo'shma korxonalar faoliyati orqali takomillashtirish bo'yicha mahalliy va xorijiy tajribani umumlashtirish bir qator xulosa va tavsiyalar chiqarish imkonini beradi.

*Birinchi*dan, mulkni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma biznesning samarali rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim beshta shakldan biri hisoblanadi.

*Ikkinchi*dan, xizmatlar sohasida kichik korxonalar uchun keng ko'lamli va muvofiqlashtirilgan infratuzilma obyektlari tarmog'ini tizimli ravishda yaratish, shu jumladan, mulkiy qo'llab-quvvatlash, davlat tomonidan turli darajadagi milliy, hududiy, mahalliy va moliyaviy, moddiy-texnik yordamisiz mumkin emas.

*Uchinchi*dan, kichik biznes infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yaxlit, puxta o'ylangan siyosatning yo'qligi deyarli barcha hududlarda mulk turlarini qo'llab-quvvatlash elementlari majmuasining, qoida tariqasida, tor bo'lishiga olib keladi. Lizing munosabatlari, franchayzing faoliyati, qo'shma xalqaro tadbirkorlik, noturar joy va asbob-uskunalar fondlari, biznes-inkubatorlar va boshqalar to'liq foydalanilmayapti. Vaziyat, ayniqsa, byudjeti subsidiyalangan hududlarda qiyin.

*To'rtinchi*dan, kichik biznes subyektlarini mulkiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha shirkatlarni rivojlantirishning muhim zaxirasi harbiy-sanoat kompleksini konvertatsiya qilish jarayonida, shuningdek, bankrotlik holatini qayta tashkil etish jarayonida korxonalarni tugatish yoki ixtisoslashtirish jarayonida bo'shatilgan ko'char va ko'chmas mulkdan foydalanish hisoblanadi. Konvertatsiya qilingan va qayta tashkil etilgan korxonalarining lizing yoki lizing asosida ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish nafaqat binolar va uskunalarini sotib olish xarajatlarini minimallashtirish, balki ularning barqarorligi va samaradorligini, ayniqsa, dastlabki bosqichda sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

XULOSA

Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasida sherikchilik aloqalarini takomillashtirish masalalari bo'yicha amalga oshirgan tadqiqotlarimiz quyidagi xulosa va takliflarni bildirish imkonini berdi.

1. Sherikchilik aloqalari – bu bir necha tadbirkorlar o'rtasida tuziladigan shunday shartnomaviy munosabatlarki, bunda tadbirkorlar pul yoki tovar shaklidagi o'z faoliyati natijalarini almashtirishlari hisobiga zarur darajadagi foyda olishga imkon beradi. Tadqiqotda sheriklikning 7 ta yo'nalishda 30 tadan ortiq yo'nalishlari tasniflandi. Fikrimizcha, xizmatlar sohasida sherikchilik - bu ikki yoki undan ko'p xizmat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari bilan tanlangan

sherikning soha ixtisosligiga qarab, eng yuqori nafni ko‘zlab kredit yoki zarur asbob-uskunalar olish, mutaxassislarni topish va yollash, malakali ishchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash, zarur xomashyo va mahsulotlarni tashish, boshqa turdagi biznes xizmatlarini ko‘rsatishni nazarda tutuvchi og‘zaki yoki yozma ravishda mustahkamlangan hamkorlik shaklidir.

2. O‘zbekistonda DXSH loyihalari sonining ortishi va jarayonning murakkablashib borishi bilan birga maxsus DXSH markazlari, loyihalar monitoringi bo‘yicha tuzilmalar tashkil qilina boshlandi. Shu sababli, O‘zbekistonda muqobil energetika, sog‘liqni saqlash, maktabgacha va maktab ta’limi, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, tibbiy-ijtimoiy xizmatlar kabi sohalarda DXSH loyihalari, sherikchilikning rivojlangan davlatlardagi shakllarini yanada keng rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport, madaniyat, turizm, OAV kabi sohalarga sherikchilik aloqalarini joriy qilish, transport, kommunikatsiya, AKT sohasida ham ko‘lamini oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Muallif fikricha, xizmatlar sohasida sherikchilik rivojlanishiga makro va mikro darajadagi me‘yoriy-huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy-texnik kabi salbiy omillar ta’sir qiladi. Albatta, bu omillar qatori va ko‘lamini yanada kengroq aniqlash mumkin. Sababi xizmatlar sohasida sherikchilikning o‘ziga xos sohaviy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tabiiy-geografik, siyosiy-demografik hamda mintaqaviy omillar kabi boshqa omillarni ham baholash mumkin. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarini tarmoq va hududiy darajada barqaror va mutanosib rivojlantirish, nomutanosibliklarni bartaraf etish maqsadga muvofiq.

4. Qoraqalpog‘istonda lizing xizmalari sohasida sherikchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni hal qilish lozim:

birinchidan, lizing tashkilotlarini ko‘rsatadigan xizmatlari portfelining turlari va shakllari bo‘yicha tanqidiy chuqur tahlil qilish hamda optimallashtirish;

ikkinchidan, hududlar kesimida qishloq xo‘jaligidagi lizing xizmatlari bo‘yicha mavjud qarzdorliklarni bartaraf qilish mexanizmlarini ishlab chiqish;

uchinchidan, lizing xizmatlari tarkibida zamonaviy, innovatsion xizmatlarning ulushini oshirish bo‘yicha axborot-maslahat faoliyatini kuchaytirish;

to‘rtinchidan, sanoat ishlab chiqarishi, AKT, arxitektura va dizayn, 3D modellashtirish, qishloq xo‘jaligidan tashqari sohalardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar lizingi kabi xizmatlarni kengroq rivojlantirish.

5. Muallif fikricha, xizmatlar sohasida sherikchilikni mulkiy, kadrlar, axborot va maslahat yo‘nalishida qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasini shakllantirish, tadbirkorlik subyektlarini turli yo‘nalishlar bo‘yicha kompleks va manzilli qo‘llab-quvvatlash orqali uning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratishdan iborat.

6. Sheriklikning franchayzing tizimi Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham endi rivojlanayotgan yo‘nalishlardan bo‘lib, hozirda asosan shahar joylarida “KFC”, “BIG WAY”, “BISTRO”, “EVOS”, “Korzinka”, “AVON”, “Сибирское здоровье”, “McDonald’s” kabi franchayzing tizimlari faoliyat yuritmoqda.

Bizning fikrimizcha, Qoraqalpog‘istonda franchayzing tizimini rivojlantirish uchun me‘yoriy hujjatlar, soliq va nosoliq imtiyozlarini taqdim etishga qaratilgan takliflar tayyorlash, tumanlar uchun maxsus soliq imtiyozlarini berish, dunyoning rivojlangan franchayzing kompaniyalari bilan aloqalar o‘rnatish va shartnomalar

tuzish, joylarda franchayzingni targ'ib qiluvchi tadbirlar, jumladan, seminarlar, treninglar, konferensiyalar tashkil qilish lozim.

7. Sheriklikning muhim shakli bo'lgan XIIKlar asosan Nukus shahrida (*47 ta yoki 23,9 foiz*), keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan Mo'ynoq (*39 ta yoki 19,8 foiz*) va Qo'ng'iro't tumanlari (*13 ta yoki 6,6 foiz*) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam ulush esa Shumanay (3 ta), Taxtako'pir, Xo'jayli (4 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. 2012-2022-yillarda XIIKlar soni Qoraqalpog'istonda qariyb 4 martaga, o'rtacha ishchilar soni 1,7, mehnatga haq to'lash xarajatlari, XIIKlarda ishlab chiqarish hajmi 10 marta, import hajmi 4 marta va eksport hajmi esa 144 martagacha oshgan. Qoraqalpog'istonda XIIKlarning geografiyasida eng ko'p ulush XXR (31,1 foiz), Rossiya (21,4 foiz), Qozog'iston (13,2 foiz), Turkiya va Janubiy Koreya (6,0 foiz dan) davlatlari ulushiga to'g'ri keladi va istiqbolda ushbu geografiyani kengaytirish kerak.

8. Keyingi besh yilda Qoraqalpog'istonda aholini rozi qilishdagi muhim sheriklik shakli - tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish, xizmatlar ko'lamini va samadorligini oshirish, tizimdagi muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, rehabilitatsiya qilishning texnik vositalari va protez mahsulotlari ta'minoti 3-3,5 martagacha oshgan. Shuningdek, Qoraqalpog'istonda nogironlar, keksalar va aholining boshqa hojatmand qatlamlariga tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini 250 shtat birligigacha yoki har ikkita mahallaga bitta xodim darajasiga yetkazish, ularning xizmatlari hajmida oziq-ovqat, gigiyena tovarlaridan tashqari gazeta va jurnallarga obuna, imtiyozli cheksiz internet paketlarini taqdim qilish, manzilli dori-darmonlar, zamonaviy rehabilitatsiya xizmatlari va vositalari ulushi, tibbiy ko'riklar, statsionar, ambulator, uy, sanatoriya sharoitida davolanish sifatini oshirish maqsadga muvofiq.

9. Prognoz natijalariga ko'ra, keyingi yillarda Qoraqalpog'istonda xizmatlar sohasida yaratilgan qiymatning barqaror o'sish sur'atlari kuzatiladi va 2027-yilga borib 2818,23 mlrd. so'mni tashkil etadi hamda 2022-yilga nisbatan 1,22 martaga oshadi. Boshqacha aytganda, 2022-2027-yillarda xizmatlar sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymatning o'rtacha o'sishi 4,0 foizni va natijada YaHMni 1,09 martaga oshishi kuzatiladi. Shuningdek, keyingi besh yilda ko'rsatilgan xizmatlarning yuqori sur'atlardagi o'sishi ta'minlanadi, ya'ni yillik o'rtacha o'sish sur'ati 11,9 foizni tashkil qilgani holda 2027-yilga borib 5875,8 mlrd. so'mga yoki 2022-yildagiga nisbatan 1,75 martaga oshishi ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi chora-tadbirlarni to'laqonli amalga oshirish Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmatlar sohasining tadqiq etilgan barcha yo'nalishlarida sherikchilik aloqalarini yanada rivojlanishiga olib keladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.01.2020.I.20.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ БЕРДАХА**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ БЕРДАХА**

ЖУМАНАЗАРОВ ОСЕРБАЙ СЕЙТМУРАТОВИЧ

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПАРТНЕРСКИХ ОТНОШЕНИЙ И
МЕХАНИЗМОВ В СФЕРЕ УСЛУГ
(на примере Республики Каракалпакстан)**

08.00.05 – Экономика отраслей сферы услуг

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Нукус – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за номером В2023.2.PhD/Iqt2902.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: **Салаев Санъатбек Камилович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Арабов Нурали Уралович**
доктор экономических наук, профессор

Махмудов Носир Махмудович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 5 » апреля 2024 года в 15⁰⁰ часов на заседании Научного Совета PhD.03/30.01.2020.1.20.06 при Каракалпакском государственном университете имени Бердаха (Адрес: 230112, г.Нукус, ул.Ч. Абдилова 1. Тел.: (99861) 223-60-47; факс: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета имени Бердаха (зарегистрировано за № 164). Адрес: 230112, г.Нукус, ул.Ч. Абдилова 1. Тел.: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Автореферат диссертации разослан « 18 » марта 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 44 « 18 » марта 2024 года)



Ж.К.Сауханов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

Р.Б.Утемуратов
Учёный секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, PhD,
доцент

Т.Досчанов
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Глобализация и усиление конкурентных процессов в мировой экономике требуют в ведущих и развивающихся странах мира ускоренного роста сферы услуг. По данным The Global Economy, «Доля сферы услуг в мировом ВВП в 2021 году составил в среднем 55,43%, самый высокий показатель в Макао – 94,2%, Гонконге – 89,69%, США – 77,6%, во Франции, Кипре, Израиле, Швейцарии – в среднем 72,0%, в Нидерландах, Греции, Испании, Италии – около 70%, в странах СНГ – около 53,0% в России и Армении, 54,0% в Казахстане, 48,0% в Беларуси»²¹. Развитие сферы услуг как специфический сложный и системный процесс требует благоприятной социально-экономической среды, оптимальной отраслевой политики, инновационных подходов и скоординированного действия механизмов государственной поддержки.

В мире проводится ряд научных исследований, направленных на развитие сферы услуг в соответствии с требованиями глобальной конкурентной среды, совершенствование экономического механизма, обеспечивающего её эффективное функционирование. Вопросы установления инновационных и современных форм оказания услуг, оптимального использования его мультипликативного эффекта и форм партнерства, повышения его роли в макроэкономических показателях, благосостоянии населения и создания новых рабочих мест, применения в сфере технологий цифровой экономики, внедрения в регионах оптимальных организационно-правовых форм партнерства с высокой эффективностью в сфере услуг, с учетом специфических геополитических особенностей этих регионов являются одними из приоритетных направлений научных исследований в этой области.

В Новом Узбекистане особое внимание уделяется повышению роли сферы услуг в экономике, диверсификации и повышению качества сервиса на местах, дальнейшей поддержке сферы. В связи с этим в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы обозначена задача «Развитие сферы услуг и сервиса в регионах с увеличением в последующие 5 лет объемов услуг в три раза и созданием 3,5 млн. новых рабочих мест в данной сфере»²². Эффективная реализация этих задач, в свою очередь, демонстрирует актуальность научно-исследовательских работ, направленных на решение проблем связанных с повышением привлекательности сферы услуг, предоставлением дополнительных льгот бизнес субъектам сферы услуг, сокращением доли теневой экономики, использованием возможностей нового аэропорта Муйнака с целью развития экотуризма в Республике Каракалпакстан, внедрением среди субъектов развития сферы услуг на местах таких форм как социальное партнерство, факторинг, лизинг,

²¹ https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/share_of_services

²² Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы» от 28.01.2022 г. \ \ lex.uz

консалтинг, франчайзинг, высококачественных конкурентных видов услуг как МІСЕ, эко, туризм, и новых организационно-экономических механизмов.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит для реализации задач, указанных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы» от 28 января 2022 года, №УП-213 «О дополнительных мерах по повышению благосостояния населения Республики Каракалпакстан путем ускоренного развития предпринимательства, инновационных технологий и инфраструктур» от 31 августа 2022, года, а также в Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-104 «О дополнительных мерах по развитию сферы услуг» от 27 января 2022 года, №ПП-5113 «О мерах по ускоренному развитию сферы услуг» от 11 мая 2021 года, и в других нормативно-правовых актах, связанных с данной сферой.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Теоретико-методологические проблемы развития форм и механизмов партнерства в отраслях сферы услуг отражены в работах зарубежных ученых как P.Druker, F.Kotler, F.Хайек, Y.Shumpeter, A.Boardman, F.Vining, G.Xodj, S.Greve, T.Vovayrd²³.

К решению этой научной проблемы посвящены труды ученых из стран СНГ Г.Аванесовой, А.Айказян, А. Алейникова, Ю.Анискина, Т.Бурменко, Ж.Романова, А.Блинова, А.Бусыгина, Ю.Горемыкина, Л.Ерохиной, А.Зверева, В.Морозова, В.Новицкого, Ю.Осипова, Н.Платоновой, Ю.Романова, Ю.Ядгарова и других²⁴.

